UO‘K 37.013.46

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIMIY NATIJALARGA ERISHISHGA QARATILGAN HARAKATLARNI PROGNOZLASH MEXANIZMLARI

A.A.Xo‘jayev

Maqolada oliy ta’lim muassasalari o‘qitish sifati va ta’lim samaradorligini oshirish, prognozlash, risklarni minimallashtirish va buning yo‘llarini izlash, o‘qituvchining xatti-harakati tavsifi, risklarga qarshi dastur ishlab chiqish bosqichlari yoritildi.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim tizimi, ta’lim sifati, davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, innovatsiyalar, risklar, samaradorlik o‘zlashtirish, refleksiya*.

В статье освещены этапы повышения качества и эффективности преподавания в высших учебных заведениях, прогнозирования, минимизации рисков и поиска её способов, описания действий преподавателя и разработки программы против рисков.

Ключевые слова: *система высшего образования, качество образования, государственные образовательные стандарты, учебные программы, инновации, риски, освоение эффективности, рефлексия.*

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash monitoringini o‘tkazishning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida o‘qitishning kredit-modul tizimi me’yoriy-uslubiy asoslarini takomillashtirishdir. Respublikamizda ta’limning sifati va samaradorligini baholash uchun ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish, yig‘ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va ma’lumotlarning taqdimotini o‘tkazish zarur bo‘ladi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdagi me’yoriy-uslubiy hujjatlarning o‘quv jarayonida qo‘llanilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni prognoz qilish va kamaytirishning zaruriy choralarini belgilashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir [1], deb ta’kidlandi. Murojaatnoma Sh.Mirziyoyev ustuvor yo‘nalishlarning ikkinchisida “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida birinchi navbatda e’tibor Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishini aytib o‘tdi: “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi” [1]. Ushbu fikrga tayanib, ta’limga e’tibor deputat va senatorlar, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerakligini, maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalardan biri bo‘lishini ta’kidladi. Bu so‘zlarning negizida anglashimiz kerak bo‘lgan asosiy vazifalardan biri sifatida oliy ta‘lim muassasalarining ta’lim sifatini oshirish uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar qilish masalasi turibdi.

Davlat dasturlari oliy ta’lim orqali inson kapitalini shakllantirishga asos bo‘lishi kerak. Oliy ta’limning inson kapitalini shakllantirishga ta’siri davlat tomonidan tartibga solinadigan dasturlar asosida amalga

oshiriladi. Ushbu dasturlar universitetlar tarkibini takomillashtirish va tanlov asosida fundamental va amaliy tadqiqotlarni moliyalashtirishni hisobga olishi kerak [6. B. 15].

Yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir [7. B. 1479].

Global va milliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri natijasida OTM boshqaruv tizimida transformatsion jarayonlar kuchayib bormoqda. Transformatsion jarayonlar faqat boshqaruv tizimi bilan cheklanmasdan, OTMlarning barcha funksional faoliyat yo'nalishlarini qamrab olayotganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bugungi kunda OTMlar faoliyatini tashkil etish modellarida jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda [8. B. 151].

O.S.Qahhorovning "Ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligini baholash" nomli maqolasida oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv faoliyati samaradorligi, boshqaruv tizimi va boshqaruv jarayoni samaradorligining o'zaro ta'siri va omillari, ta'lim muassasasi samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va kadrlar tayyorlovchi kafedralarning ustuvorlik masalalari tadqiq qilingan [9].

O'quv-ilmiy komplekslarning tashkil etilishi OTMlarda yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan birga, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga imkon beradigan texnologiyalarning yaratilishiga xizmat qiladi [10].

Doimiy ravishda muvaffaqiyatli innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim muassasalarining ma'muriy guruhlari tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, kutilgan va kutilmagan xavf-xatarlarga qarshi kurashiladi. Bunda ma'lum bir dasturlarga tayaniladi. Bu dasturlar umumiy ta'limning davlat ta'lim standartini joriy etish sharoitida xavflar va salbiy oqibatlarni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. Risklarga qarshi dastur tashkilotning umumiy maqsadlari uchun ishlab chiqilgan dasturiga ilova shaklida keltirilishi ham mumkin. Asosiy ta'lim dasturini qurish doimo mantiqiy-strukturaviy yondashuvga asoslanadi, bu maqsad va vazifalarni, rejalashtirilgan natijalarni, ularga erishishga qaratilgan harakatlarni prognozlash bosqichida xavflarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida risklarning oldini olishga qaratilgan dasturni ishlab chiqish uch bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar tahlili. Risk tabiati bo'yicha ichki tahdidlar – ta'lim tashkilotidagi salbiy holatlar, shuningdek, tashqi muhitning mumkin bo'lgan salbiy ta'siri. O'qituvchilarning umumiy ta'limga davlat ta'lim standartini joriy etishga tayyor emasligi, yangi standartlarning maqsadga muvofiqligi va ahamiyatini noto'g'ri tushunish natijasida ta'lim oluvchilar tomonidan qarshilik ko'rsatilishi ichki tahdidlar tarkibiga kiradi. Buning oqibatida yangi ta'lim standartini joriy etish g'oyasi rad etilishi ham mumkin. Kutilgan va kutilayotgan risklarni tahlil qilish – bu xavf omillarini aniqlash, ularning ahamiyatini sifat va miqdoriy jihatdan baholashdir. Risklar aniqlangandan so'ng ular tizimlashtiriladi va tasniflanadi, xavf matritsasi ishlab chiqiladi. Masalan, kadrlar iste'molchilari "Tayyorlanayotgan kadrlarga amaldagi tegishli sohada davlat ta'lim standarti bo'yicha ishlab chiqilgan malaka talabi, o'quv reja va dasturlar asosida ta'lim berilishi lozim" deya ta'kidlashi mumkin. Ishchi guruh yig'ilishini rejalashtirayotganda, kadrlar iste'molchilarining 50 foizi unda qatnashishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Pedagogik kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalari rahbarlari mantiqiy konstruksiyalarga asoslangan holda, bo'lajak voqealarni bosqichma-bosqich rejalashtirish, sabab-oqibat munosabatlari va zanjirlarini aniqlash usulidan foydalanadilar. Ushbu usuldan foydalanishning cheklovi jihati shundaki, bir qadamdagi xato butunlay noto'g'ri natijaga, noto'g'ri prognozga olib kelishi mumkin. Mantiqiy tuzilmalar

zanjiri qanchalik uzun bo‘lsa, prognozning ishonchliligi shunchalik past ko‘rsatkichda bo‘ladi. Ta’lim amaliyotida ekspert usuli doim eng samarali hisoblanib kelgan. Uning asosiy kamchiliklari mustaqil ekspertlarni jalb qilishdagi qiyinchilik va baholashning subyektivligini o‘z ichiga oladi. Murakkab va noyob holatlarda bu usul faqat boshqa usullar bilan birgalikda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Kelajakdagi jarayonlarni kichik miqyosda modellashtirish usuli eng ishonchli deb tan olingan. Bu usul uzluksiz ta’lim pedagog kadrlarni tayyorlash uchun ishlab chiqilgan davlat ta’lim standartini joriy etishga tayyor ta’lim tashkilotlarini aniqlash, o‘z-o‘zini tekshirish va tashqi ekspertiza bilan amalga oshiriladi. Ammo, shuni esda tutish kerakki, davlat ta’lim standarti asosida ishlab chiqilgan malaka talabi, o‘quv reja va dasturlar joriy etilganda, miqyosning oshishi bilan ushbu o‘quv-me’yoriy hujjatlar asosida kadrlar tayyorlash aniq amalga oshirila boshlaydi.

Pedagog kadrlar tayyorlashda yangilangan o‘quv-me’yoriy hujjatlarni joriy etishga tahdidlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– o‘quv-me’yoriy hujjatlarni, o‘quv dasturlari modullari va mavzulari katalogini ishlab chiqishni bitta xodimga topshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin; bunda asosiy ta’limni loyihalashni tashkil qilishda, rasmiy ma’muriy jamoada menejerning o‘z faoliyatini rejalashtira olmasligi, jamoada ishlash qobiliyati shakllanmaganligini anglatadi; bunga yechim sifatida jamoaviy ishlashga qodir ma’muriy jamoani shakllantirish taklif qilinadi;

– pedagog kadrlar menejment tayyorgarligining past darajasi va imidjini shakllantirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarga sabablar sifatida quyidagilarni aytish mumkin: rahbar va/yoki soha prorektorida o‘z sohasida chuqur tahlillarni amalga oshirgan holda qarorlar qabul qilish kompetentligi yetishmasligi; bu borada pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida zaruriy o‘quvlarni amalga oshirish, bashorat qilish va rejalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim;

– professor-o‘qituvchilarda o‘quv jarayonini (model, pedagogik faoliyatni) loyihalash qobiliyatining yetishmasligi natijasida pedagogik xodimlar orasida innovatsion faoliyat motivatsiyasining past darajada bo‘lish holatlari, o‘qituvchilarning innovatsion jarayonlarga rasmiy munosabatlarini keltirish mumkin; bunday holatlarda xatarlarni minimallashtirish uchun faoliyat shakllari bo‘yicha menejerlar va o‘qituvchilar malakasini oshirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish uslublaridan foydalanish, ta’lim tashkilotida innovatsion faoliyatni uslubiy ta’minlash tizimini shakllantirish kerak;

– ilg‘or ta’lim shakllaridan foydalanish, yangi kasbiy vakolatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilmagan ta’lim tashkilotining rahbariyati va professor-o‘qituvchilarining yo‘qligi ayrim pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari tomonidan pedagogik loyihalash, kadrlar iste’molchilaridan iborat ijodiy jamoalarni shakllantirish, innovatsion jarayonlarni psixologik-pedagogik va ilmiy-metodik ta’minlash bo‘yicha malaka oshirish kurslarini o‘tkazish zaruratini yuzaga keltiradi; bu yerda minimallashtirish usullari: pedagogik loyihalash dasturlarini ishlab chiqish, kadrlar iste’molchilaridan iborat ijodiy jamoalarni shakllantirish, ta’lim tashkilotidagi innovatsion jarayonlarni psixologik, pedagogik va uslubiy ta’minlash.

– mavjud resurslardan foydalanilmasligi (yoki qisman foydalanilishi) o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda yuzaga keladigan risklarning sabablaridan biri bo‘lib, bu kadrlar iste’molchilaridan iborat ijodiy jamoalarning real holatda hamkorlikda ishlash tizimining yo‘qligi, boshqaruv (funksionallikni ta’minlovchi) kengashining to‘laqonli faoliyat olib bormasligi bilan bog‘liq; bunday vaziyatlardan chiqish yo‘li: kadrlar iste’molchilarini ta’lim tashkiloti-

da innovatsion jarayonlarni tashkil etishga jalb qilish, davlat va ijtimoiy buyurtmani bajarish nuqtayi nazaridan kadrlar iste'molchilari bilan hamkorlikda pedagogik ta'lim, ta'lim tashkilotining ochiq ta'lim tizimini shakllantirish (veb-sayt, konferensiyalar, qo'shma seminarlar, master-klasslar va boshqalar);

– raqobatbardoshlikni ta'minlash, transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishda ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan muassasalar, tashkilotlar, korxonalar bilan mustahkam va doimiy ishlovchi ijodiy jamoalarning yo'qligi ta'lim sohasidagi hamkorlik yetarli darajada emasligini bildiradi; bunga sabab, boshqaruv xodimlarining hamkorlik aloqalarini mustahkamlay olmasliklari, hamkorlarda doimiy o'zaro manfaatli munosabatlarga qiziqish yo'qligidadir; shuningdek, ta'lim tashkiloti bilan hamkorlarning ta'lim tizimidagi munosabatlarda risklarni oldindan ko'ra bilishi, ularni bartaraf qilish mexanizmlarining mavjud emasligi ham sabab bo'ladi; risklarni bartaraf qilish usullari: ochiq institutsional ta'lim tizimini shakllantirish (veb-sayt, konferensiyalar, kadrlar iste'molchilari va ta'lim tashkilotining birgalikdagi harakatlari va boshqalar), qo'shma loyihalar va hamkorlikni amalga oshirish, shu jumladan, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish.

Ikkinchi bosqich. Xatarlarga qarshi dasturni yaratish. Aniqlangan va bashorat qilingan xavflarni maksimal darajada bartaraf qilish yoki kamaytirish kerak. Xatarga qarshi dastur xavfning oldini olish choralarini qamrab oladi. Unda tavsiya etilgan qarshi choralar va ushbu qarshi choralarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar (shartlar) batafsil tavsiflanadi. Xatarga qarshi dasturni amalga oshirish uchun vazifa, rejalashtirilgan natija, harakatlar, muddatlar va mas'ul shaxslar ko'rsatilgan harakatlar rejasini ishlab chiqish talab etiladi.

Uchinchi bosqich. Xatarlarga qarshi kurash dasturini amalga oshirish. Puxta o'ylab, chuqur tahlillarga tayangan holda ishlab chiqilgan dastur va uning rejasini amalga oshirish mumkin bo'lgan xavflarni bartaraf etadi. Masalan, ta'lim tashkilotida o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish, baholashning turli tizimlarini joriy etish jarayonida xavfga qarshi dastur ishlab chiqilgan bo'lib, unda quyidagi bosqichlar ta'kidlanadi:

– pedagog xodimlar bilan tushuntirish ishlari olib borish (ularni pedagogik ongda tub o'zgarishlar zarurligiga ishontirish, kasbiy faoliyatning maqsadlari, mazmuni va uslubini o'zgartirish);

– kadrlar iste'molchilari bo'lgan tashkilot, korxona, ta'lim markazlari, qayta tayyorlash va malaka oshirish markaz(lar)i bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi;

– davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalariga muvofiq o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishning uchta yangi nazariy va uslubiy yondashuvini amalga oshirish, malaka oshirish mazmuni va shakllarini yangilash, pedagog kadrlarni amaliyotga yo'naltirilgan holda qayta tayyorlash uchun pedagogik amaliyot monitoringini yuritishi;

– ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligining malaka talabalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik kompetensiyalarini shakllantirish uchun professor-o'qituvchilarning faoliyatini nazorat qilish va tuzatish;

– talabalar bilan o'quv faoliyati, ta'lim mazmuni va sifati yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra ta'lim modelini o'zgartirish, kadrlar iste'molchilarining talab va istaklarini inobatga olish va buning natijasida yangi ta'lim natijalarini olish.

Umuman olganda, uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish xavflarni mazmunli boshqarishni talab qiladi. Ushbu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi: xavf omillarini aniqlash, xavflarni tahlil qilish, xavflarni baholash, xavfga qarshi dasturni yaratish, xavfga javob berishni rejalashtirish, xavflarni minimallashtirishni nazorat qilish va monitoring qilish, risklarni boshqarishni rejalashtirish.

Jadal suratlar bilan rivojlanayotgan ta’lim tizimida pedagogik tavakkalchilikning oldini olishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Innovatsiyalashgan muhitda pedagogik xatarlarning oldini olish orqali o‘qituvchilarni tizimli ravishda tayyorlash, ularning pedagogik faoliyatini doimiy ravishda rag‘batlantirib borish amalga oshiriladi. Buning uchun oliy ta’lim muassasasi pedagogik jamoaga uslubiy yordamning keng ko‘lamli shakllarini taklif etishi mumkin. Jumladan, “Pedagogik mahorat maktabi”, ilmiy izlanishlar olib borish uchun sharoitlar, kasbiy mahorat tanlovlari, ochiq darslar tanlovlari, ko‘rgazmalar, pedagogik mahsulotlar tanlovlarida ishtirok etishlarini tashkil qilish orqali moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish va boshqalar [2].

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va o‘quv jarayonlarining samaradorligini oshirishda pedagogning boshqaruvchanlik mahorati ham bevosita ishtirok etadi. Dars jarayonida talabalarning bilish faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning eng asosiylaridan biri o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqtira olishdir [4. B. 176].

Barchamizga ma’lumki, professor-o‘qituvchilar bilan ularning kasbiy o‘sishiga qaratilgan tizimli uslubiy ishlar ularning tavakkal qilishga tayyorligini shakllantiradi. Bunda xavf omillarining imkoniyatlarini bashorat qilish va ularni bartaraf qilish imkonini beradigan kasbiy va shaxsiy xususiyatlar darajasining ortishini kuzatish mumkin. Bu borada L.M.Mitina tavakkal qilishga tayyorlikning maqbul darajasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar past va yuqori darajadagi xavfga tayyor bo‘lgan o‘qituvchilarga qaraganda yuqori pedagogik malaka ko‘rsatkichlarini namoyish etishini qad etgan [3. B. 44].

Ta’lim sifatini baholash ta’lim muassasalari muvaffaqiyati va ta’lim jarayonini o‘zgartirish uchun muhimdir. Baholash o‘qituvchi va talabalar munosabatlariga oid barcha ma’lumotlar, tahlillar va natijalar asosida ta’lim jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Bu esa talabalarning ta’lim olishini yaxshilashga, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida xavfsiz o‘zaro aloqalar o‘rnatilishiga imkon beradi [5. B. 185].

O‘qituvchilarning xavf-xatarga tayyorligini optimallashtirishning eng muhim sharti sifatida ularning o‘z-o‘zini anglash darajasini, xususan, o‘z-o‘zini hurmat qilish, manfaatdorlik kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning xavf-xatarga tayyorlik darajasi noaniq vaziyatlarda pedagogik qarorlarni qabul qilish, ularni amalga oshirish va tuzatish, moslashuvchanlik, muloqot qobiliyatlari, pedagogik o‘zaro munosabatlardagi kompetensiya, o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyat sharoitida ta’lim munosabatlari ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash odatda psixologik-pedagogik xizmat orqali amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. [Internet manba]. URL: https://president.uz/uz/lists/view/5774 (Murojaat etilgan sana: 01.06.2023)

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 517-son qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.08.2020 y., 09/20/517/1226-son; 12.03.2021 y., 09/21/132/0202-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.10.2021 y., 09/21/656/0996-son; 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son.

3. *Митина Л.М*. Психология труда и профессионалного развития учителя. – Москва: Академия, 2004. – 320 с.

4. *Isroilov I.K*. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini sifatini oshirish masalalari // Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). 2022. – Vol. 10. Issue 5. – B. 176–178.

5. *Choriyev H.A*. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashning noravshan (fuzzy) to'plamlari nazariyasiga asoslangan modellari va mexanizmlari. // In: Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano. – Texas, USA, 2023. – P. 185–188.

6. *Султонов Ф.Р*. Человеческий капитал как формирующий фактор устойчивого развития. // Иқтисод ва молия / экономика и финансы, 2016. – № 8. – С. 9–16.

7. *Хайитова Ш*. Таълим тизими самарадорлигини оширишда мустақил таълимнинг ўрни // Academic Research in Educational Sciences, 2021. – Vol. 2. Issue 4. – Б. 1479–1482.

8. *Умарова Х.У*. Олий таълим муассасаларида замонавий бошқарув тизимининг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштиришнинг концептуал асослари. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021. – № 5. – B. 143–153.

9. *Qahhorov O.S*. Ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligini baholash // "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2019. – № 2. – B. 47–50.

10. *Usmonov B.Sh*. Oliy ta'limning innovasion faoliyati va uni iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni. // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar, 2018. – № 3. – B. 11–14.

MECHANISMS OF FORECASTING ACTIONS AIMED AT ACHIEVING EDUCATIONAL RESULTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

A.A. Khojaev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2023. 6(74). 65–72.

[1]Department of Coordination of Activities of Higher Education Institutions under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, 100174, Olmazor District, str. University, 7 (Uzbekistan). E-mail: devonxona@edu.uz

Keywords: the system of higher education, the quality of education, state educational standards, educational programs, innovation, risks, self-efficacy, skill, reflection.

Abstract: The article highlights the stages of improving the quality of education and the effectiveness of teaching in higher educational institutions, forecasting, minimizing and finding ways to minimize risks, describing the behavior of a teacher and developing a risk management program.

The article outlined the purpose of developing a program aimed at preventing risks in pedagogical higher education institutions.

Materials and methods used: the heads of higher educational institutions preparing pedagogical personnel use a method of step-by-step planning of future events, determination of cause-and-effect relationships and chains, based on logical constructions. The limitation of using this method is that an error in one step can lead to a completely wrong result, an incorrect forecast. The longer the chain of logical structures, the lower the reliability of the forecast. In educational practice, the expert method has always been considered the most effective. Its main disadvantages include the difficulty in attracting independent experts and the subjectivity of the assessment. In complex and unique cases, it is advisable to use this method only in combination with other methods.

The method of modeling future processes on a small scale is recognized as the most reliable. The identification of educational organizations ready to introduce the state educational standard developed for the training of teaching staff of continuing education is carried out by the

method of self-examination and external examination. But it should be remembered that with the introduction of many risk factors, including the qualification requirement developed on the basis of the state educational standard, training plans and programs, with an increase in scale, training of personnel on the basis of these educational and regulatory documents begins to be carried out clearly.

Results and conclusion. We will be able to show that the most important condition for optimizing the risk readiness of teachers is to increase their level of self-awareness, in particular, such components as self-esteem, self-interest, self-awareness. In addition, the level of risk readiness of teachers is determined by the adoption, implementation and correction of pedagogical decisions in ambiguous situations, flexibility, communication skills, competence in pedagogical interactions, self-control. In the context of innovative activities in higher educational institutions, the leading role in the implementation of psychological and pedagogical support for participants in educational relations can usually be observed through psychological and pedagogical service.

References:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi* [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Supreme Assembly and the people of Uzbekistan on December 20, 2022]. [Online]. URL: https://president.uz/uz/lists/view/5774 (Date of Access: 01.06.2023)

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi “*Respublika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida*” 517-son qarori [Resolution No. 517 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated August 26, 2020 “On the approval of the regulation on the procedure of financial incentives for professors and other categories of employees of the republic’s higher education institutions from extra-budgetary funds”]. National database of legal documents. 27.08.2020 y., 09/20/517/1226-son; 12.03.2021 y., 09/21/132/0202-son 26.10.2021 y., 09/21/656/0996-son; 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son.

3. Mitina, L.M. (2004). *Mitina L.M. Psihologiya truda i professionalnogo razvitiya uchitelya* [Psychology of work and professional development of a teacher] Moscow: Akademiya.

4. Isroilov, I.K. (2022) *Oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonlarini sifatini oshirish masalalari* [Issues of improving the quality of educational processes in higher education institutions]. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). Vol. 10. Issue 5. Pp.176-178.

5. Choriyev, H.A. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini nazorat qilish va baholashning noravshan (fuzzy) to‘plamlari nazariyasiga asoslangan modellari va mexanizmlari [Models and mechanisms based on the theory of morawsha (fuzzy) sets of quality control and assessment of education in higher education institutions]. In: *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano*. Texas, USA, Pp. 185-188.

6. Sultonov, F.R. (2016) Chelovecheskiy kapital kak formiruyuщiy faktor ustoychivogo razvitiya [Human capital as a formative factor of sustainable development]. *Iqtisod va moliya / ekonomika i finansy*. No 8. Pp. 9-16.

7. Xayitova, Sh.(2021) Ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda mustaqil ta’limning o‘rni [The role of Independent Education in improving the effectiveness of the educational system]. *Academic Research in Educational Sciences*, 2021. – Vol. 2. Issue 4. Pp. 1479-1482

8. Umarova, X.U. (2021) Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning konseptual asoslari [Conceptual foundations for improving the organizational and economic mechanism of the modern management system in higher educational institutions]. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. 5. Pp.143-153.

9. Qahhorov, O.S. (2019) Ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligini baholash [Assessment of the management effectiveness of the training of competitive personnel in the educational system]. *Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar*. 2. Pp. 47-50.

10. Usmonov, B.Sh. (2018) Oliy ta'limning innovasion faoliyati va uni iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni [Innovation activity of higher education and its role in the development of the economy]. *Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar*. 3. Pp. 3-13.

Muallif haqida ma'lumot:

XO'JAYEV Alijon Atabekovich – pedagogoka fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish Departamenti bosh mutaxassisi. E-mail: a.khujaev@edu.uz